"AUTOSANOAT AGRO LIZING"
Mas'uliyati cheklangan jamiyati

"AUTOSANOAT AGRO LEASING"
Limited Liability Company

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shoxjaxon MFY, Bobur ko'chasi, 34-uy. **STIR:** 309 043 636. **Tel.:** 71 207 10 73. **Pochta:** info@aaleasing.uz

24-dekabr 2025-yil 054 i/ch-sonli Toshkent sh.

Komplaens nazoratiga oid yangi tahrirdagi hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va tizimlashtirish to'g'risida

"O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 18-noyabrdagi 27-140-sonli buyrug'iga asosan tasdiqlangan komplaens nazoratiga oid yangi tahrirdagi hujjatlarni jamiyatning amaldagi ichki normativ hujjatlari bilan muvofiqlashtirish maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. "Autosanoat Agro Lizing" mas'uliyati cheklangan jamiyatning quyidagi:

- "Autosanoat Agro Lizing" MChJning Manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha siyosati va uni amalga oshirish tartibi;

- "Autosanoat Agro Lizing" MChJning Sovg'alar va mehmondo'stlik xarajatlari bo'yicha siyosati va uni qo'llash tartibi;

- "Autosanoat Agro Lizing" MChJning Xayriya va tijorat homiyligi bo'yicha siyosati hamda uni amalga oshirish tartibi;

- "Autosanoat Agro Lizing" MChJning Biznes hamkor va uchinchi tomonlarni kompleks tekshirish siyosati hamda uni qo'llash tartibi;

- "Autosanoat Agro Lizing" MChJning Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti;

- "Autosanoat Agro Lizing" MChJning Xizmat tekshiruvi o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomi;

- "Autosanoat Agro Lizing" MChJning Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni kompleks tekshirish bo'yicha yo'riqnomasi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Komplaens xizmati bo'yicha bosh mutaxassis (U.Sultanboev) hamda Xodimlar va ish yuritish bo'yicha bosh mutaxassis (S. Atamatova):

- Komplaens nazoratiga oid yangi tahrirdagi hujjatlar bo'yicha "Autosanoat Agro Lizing" MChJ xodimlari uchun o'quv rejasi ishlab chiqilsin;

- Tasdiqlangan o‘quv rejasiga muvofiq, o‘quv mashg‘ulotlari tizimli ravishda tashkil etilsin;

- O‘quv rejasi asosida o‘quv-metodik materiallar (taqdimotlar, qo‘llanmalar, testlar va boshqalar) ishlab chiqilib, ularning mazmun-mohiyati xodimlarga yetkazilishi ta'minlansin.

3. “Autosanoat Agro Lizing” MChJ tarkibiy tuzilmalar rahbarlari:

- Mazkur hujjatlarda belgilangan talablarni xodimlarga tushuntirish va ularni xabardor qilish maqsadida davra suhbatlari, seminarlar hamda treninglar tashkil etish choralari ko‘rilsin.

4. Komplaens xizmati bo‘yicha bosh mutaxassis (U. Sultanboev):

- Hujjatlar talablarining ijrosi ustidan doimiy monitoring o‘rnatilsin;

- Qonunchilikdagi o‘zgartishlardan kelib chiqib, mazkur hujjatlarga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar kiritib borilsin.

5. “Autosanoat Agro Lizing” MChJning 2025-yil 04-oktabrdagi 31 i/ch-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan quyidagi hujjatlar:

- “Autosanoat Agro Lizing” MChJning Manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha siyosati;

- “Autosanoat Agro Lizing” MChJning Sovg‘alar, mehmondo‘stlik, o‘yin-kulgi va sayohat qilish haqida protsedurasi;

- “Autosanoat Agro Lizing” MChJning Xayriya va tijorat homiyligi bo‘yicha siyosati;

- “Autosanoat Agro Lizing” MChJning Biznes hamkorlarini kompleks tekshirish protsedurasi;

- “Autosanoat Agro Lizing” MChJning Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti;

- “Autosanoat Agro Lizing” MChJning Xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish protsedurasi;

- “Autosanoat Agro Lizing” MChJga Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni kompleks tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

6. Xodimlar va ish yuritish bo‘yicha bosh mutaxassis (S. Atamatova) mazkur buyruqni “Autosanoat Agro Lizing” MChJning barcha xodimlariga yetkazilishini ta'minlasin.

7. Mazkur buyruq ijrosining nazorat qilish komplaens xizmati bo‘yicha bosh mutaxassis (U. Sultanboev) zimmasiga yuklatilsin.

Bosh direktor **B. Karimov**